

IQTISODIY RIVOJLANISHNI MUHITI VA INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIKNI YAXSHILASH MASALALARI

*O‘zbekiston Rspublikasi Bank-moliya akademiiyasi
Magistranti
Tursunov Sulaymon Shodiyor o‘g‘li*

Annotatsiya. Ushbu maqolada investitsion jozibadorlikning mazmun-mohiyati, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda investitsion jozibadorlikni oshirish haqida iqtisodchi olimlarning fitkr-mulohazalari o‘rganilgan. Shuningdek, mamlakatimiz investitsion jozibadorligiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan bo‘lib, mamlakatning ishbilarmonlik muhiti va investitsiyaviy risklar darajasini baholovchi xalqaro darajada tan olingan indikatorlar haqida to‘xtalib o‘tilgan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda investitsion jozibadorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, investitsiya muhiti, investitsiyaviy jozibadorlik, Beri – (Biznes muhiti xavf-xatarlari haqida ma’lumot) indeksi, indikator, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya, retsipient, donor, biznes, segment, progressiya, investitsiya salohiyati.

ISSUES OF DEVELOPING ECONOMIC DEVELOPMENT, IMPROVING THE BUSINESS ENVIRONMENT AND INVESTMENT ATTRACTIVENESS

Abstract. This article examines the essence of investment attractiveness, the opinions of economists about increasing investment attractiveness in attracting foreign direct investments. Also, the factors influencing the investment attractiveness of our country were analyzed, and internationally recognized indicators assessing the country’s business environment and the level of investment risks were discussed. Scientific conclusions and recommendations on increasing investment attractiveness in attracting foreign direct investments have been formulated.

Keywords: investment, investment climate, investment attractiveness, Beri – (Business Environment Risk Intelligence) index, indicator, foreign direct investment, recipient, donor, business, segment, progression, investment potential.

KIRISH

Qaysi bir rivojlangan mamlakat iqtisodiyotiga razm solmaylik, eng avvalo investitsiya muhitining sog‘lomligi, uning jozibadorligi natijasida, investitsiyalar oqimining shiddat bilan kirib kelishi orqali mamlakat iqtisodiyoti bilan bog‘liq tendensiyalarning progressiv natijalarga erishayotganini guvohi bo‘lamiz.

Bugungi kunda jahonda kechayotgan globallashuv va texnologik qurollanish bosqichida iqtisodiy rivojlanish kombinatsiyasi talqinida investitsiya oqimining roli katta ahamiyat kasb etadi. Davlatlar retsipient pozitsiyasi orqali xorijiy investitsiyalarni jalg etish borasida o‘rta va yirik biznesni tashkil etish va uni samarali yuritish uchun mamlakatdagi yaratilgan investitsiya salohiyati, tashkil etilgan zamonaviy infratuzilma, investitsion muhitni sog‘lomlashtirish

bo‘yicha olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, xususan, xorijiy kompaniyalarning hech qanday moneliksiz kirib kelishi, xususiy mulk daxlsizligi, biznes subyekti sifatida o‘z kapitalini yo‘naltirish uchun mamlakatda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining tashkil etilganligi, soliq va boshqa moliyaviy imtiyozlarning mavjudligiga e’tibor qaratishadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 29- dekabrdagi Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida “Iqtisodiy o‘sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishiladi [1]” – deb ta’kidlaganlar. Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida keng ko‘lamli o‘zgarishlar va tarkibiy islohotlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, davlatning investitsion siyosati, uning ustuvor yo‘nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog‘liq hisoblanadi.

1. Adabiyotlar sharhi.

“Investitsion muhit” tushunchasi borasida, ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ta’riflar berilgan bo‘lib, ulardan taniqli iqtisodchilar M. Glagoleva va S. Beloguralarning fikricha, “Mamlakat yoki mintaqaning investitsion muhiti hamda moliyaviy qo‘yilmalar jozibadorligining ma’lum darajasini belgilovchi omillar – siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda davlatni huquqiy sharoitlari tavsifini birgalikda umumlashgan holatidir [2]”. Mazkur fikrda, investitsion jarayonlarni amalga oshirish, investitsion muhitning umumiyligi tushunchasi izohlangan bo‘lib, unda investitsion muhitini belgilaydigan turli omillar mavjudligi ifodalangan.

Investitsion jozibadorlik – bu potensial investorga mavjud mablag‘larni investitsiya qilish maqsadida ma’lum bir investitsiya ob’yekti boshqalariga qaraganda qanchalik jozibador ekanligini baholashga imkon beradigan xususiyatlar to‘plami hisoblanadi [3].

Investitsion jozibadorlikning oshishi zamонавиқи raqobat sharoitida kompaniyaning samarali ishlashi, rivojlanishi va o‘sishiga yordam beradi [4].

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda investitsiya jarayoni bozor konyunkturasi ta’siriga, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalariga va hajmiga bog‘liq [5].

Bizningcha, investitsion jozibadorlikni ta’minalash va investitsiya salohiyatidan oqilona foydalanishda investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan mintaqaning imkoniyatlarini inobatga olish, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmani innovatsion yangilashga yo‘naltirilgan investitsiya faoliyatini jadallashtirish, mintaqaviy tadqiqotlarning moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya darajasini oshirish va innovatsion investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan [6].

Respublikamizda aksiyadorlik jamiyatları qaysi sohada faoliyat ko‘rsatishidan qat’iy nazar, qo‘sishma moliyaviy resurslarini joylashtirish, jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Aynan aksiyadorlik jamiyatlariga investitsiyalarni jalb qilishning eng zamонавиқи usullaridan biri IPO mexanizmini qo‘llashdir [7].

Mamlakat investitsion muhitiga ta’sir ko‘rsatuvchi, qisqa qilib aytganda, investitsiyani kirib kelishini ta’minalaydigan asosiy omil - bu investitsion infratuzilmadir. Infratuzilma ma’lum bir maqsadni ko‘zlashi, turli xilda va o‘lchamlarda bo‘lishi mumkin. Xorijiy investitsiyalar uchun yetarli darajadagi infratuzilmaning mavjud emasligi kirib kelayotgan investitsiyalar hajmiga katta ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi [8].

3. Tadqiqot metodologiyasi.


Mamlakat investitsion jozibadorligi va uni oshirish bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash, to‘plangan ma’lumotlarni jadval va infografik ko‘rinishda tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy

fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Investitsiya jozibadorligi mamlakat investitsiya salohiyati va investitsiya riski darajasining bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatgichlar esa investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligini anqilashga yordam beradi. Investitsiya riski darajasi investitsiya muhitiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Investitsiya muhiti makroiqtisodiyot darajasida, ya'ni investor va aniq davlat organlari, xo'jalik subyektlari o'rtaсидagi munosabatlarda o'z aksini topadi. Investitsiya muhiti har qanday aniq vaqt uchun obyektiv holat bo'lib, capital qo'yish uchun mavjud sharoitlarning majmuasini o'zida qamrab oladi. Lekin investitsiya muhiti davlat organlarining boshqarish faoliyati ta'sirida shakllanadi. Shuning uchun davlatning investitsiya siyosati eng omillardandir. Shu ma'noda har bir davlat kapital import qilishda o'zining aniq kapital qabul qilish tizimiga ega bo'adi. Investitsiya muhiti darajasi qanchalik yomon bo'lsa, investor o'z riskini shunchalik yuqori belgilaydi. Investitsiya muhitining makroiqtisodiy darajada quyidagi rasm ko'rinishida tasvirlash mumkin (1-rasm)




1-rasm. Mamlakat investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar [9]

Yuqoridagi infografik shaklada keltirilgan rasmda ko'rishimiz mumkinki, O'zbekistonda investitsiyaviy jozibadorlikni belgilovchi kengaytirilgan uchta eng yirik segmentlar mavjud bo'lib, ular siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy tarmoqlar tarkibidagi ta'sir etish kuchiga ega turli-

xil omillar sanaladi.

Bu omillarning barqarorligi esa o‘z-o‘zidan investitsiyalarni donor pozitsiyasida kirib kelishi uchun munosabatlar negizi vazifasini o‘tabgina qolmay, investor o‘z kapitalini yo‘naltirish borasida mamlakatning hududi hamda soha-tarmoqlariga bo‘lgan potensiali ortib boradi. Shu qatorda aksincha, investitsiya muhiti darajasi qanchalik yomon bo‘lsa, investor o‘z riskini shunchalik yuqori belgilaydi.

O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalg etishni faollashtirishga kata e’tibor qaratilib, investorlarga ko‘maklashish va kafolatlar berish uchun ularga investitsiya, soliq tizimida va bojxona to‘lovlari sohalarida ma’lum imtiyozlar, sharoitlar va kafolatlar tizimi yaratildi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar uchun hudud jozibasini baholashda ko‘pchilik xorijiy investorlar ham «BERI» (business environment risk index) indeksidan foydalanadilar. Bu indeks asosiy 15 ko‘rsatgichda aniqlanadi, 0 dan 4 ballgacha. Indeksning optimal jihatlari shundaki, u bilan hududlardagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy strukturani qay tarzda ishlayotganini bilish mumkin bo‘ladi. Quyidagi 2-rasmda baholash mezonlari, ularning investitsiya qarorlarini qabul qilish bo‘yicha ahamiyatidan kelib chiqib aks ettirilgan.



2-rasm. Xorijiy investitsiyalar uchun hudud jozibadorligini baholashning «BERI» indeksi [10]

Yuqorida keltirilgan infografik shakldagi rasmda «BERI» (Biznes muhiti xavf-xatarlari haqida ma’lumot) indeksi mamlakat investitsiya muhitini turli hajmga ega bo‘lgan 15 ta baholash mezonlariga asoslangani berilgan bo‘lib, har bir mezonga 0 dan (to‘g‘ri kelmaydi) 4 gacha (o‘ta qulay) baho beriladi. To‘plangan ballarning yuqori bo‘lishi barqaror mamlakatni anglatadi. Mamlakat to‘plagan ball qanchalik past bo‘lsa, investitsiyalashdan olinishi mo‘ljallangan foyda yuqori bo‘lishi zarur, aks holda investitsiyalash samara keltirmaydi. Shu

o'rinda, «BERI» indeksiga kirgan ko'rsatgichlar orasida siyosiy barqarorlik (0,12 foiz) eng kata ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mamlakatimizda investitsiya masalasi so'nggi 5 yilda o'z aktualligini yo'qotmaganini hisobga olgan holda, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarini tahlil qilish natijasida yildan-yilga o'sish sur'atlari qayd etilganini ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hududlar kesimida [11]


o'sish sur'ati %

Hududlar	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	95,6	102,9	105,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	69,9	105,1	118,9
Andijon	110,6	106,0	114,6
Buxoro	104,7	147,4	98,5
Jizzax	147,4	72,4	106,9
Qashqadaryo	76,5	77,8	96,0
Navoiy	77,1	86,0	105,9
Namangan	88,0	100,5	102,0
Samarqand	128,8	98,7	122,5
Surxondaryo	77,4	109,7	100,6
Sirdaryo	111,2	107,7	127,6
Toshkent	92,2	120,3	102,4
Farg'on'a	113,5	105,7	112,4
Xorazm	92,7	139,3	108,7
Toshkent sh.	108,6	105,0	97,6

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlarida shuni ko'rish mumkinki, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati foiz ko'rinishida berilgan. 2020-2021 yillarga nisbatan 2022 yilda o'sish sur'atlari 105,0 foiz deya qayd etilgan, bu esa o'z navbatida, O'zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish tendensiyasiga ega bo'lib borayotgani hamda investitsiya muhitining qulayligidan dalolat beradi.

Bunday investitsiya holatida o'sish sur'atlarini yanada oshib borishi investorlar uchun qulay muhit yaratilganligi, investitsiya dinamikasi va tarkibiga ta'sir ko'rsatadigan jami iqtisodiy, huquqiy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi.

Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotini barqarorlashtirishda to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarning o'rni beqiyos hisoblanadi. Shu o'rinda, O'zbekistonda o'zlashtirilayotgan xorijiy investitsiya hajmidagi ulushi eng yuqori bo'lgan davlatlarni ko'rishimiz mumkin (3-rasm)



3-rasm. O‘zbekistonda o‘zlashtirilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmida xorij davlatlari ulushi (foizda) [12]

O‘zbekistonda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 190 trln. so‘nni tashkil etgan bo‘lib. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, shundan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar 72 trln. so‘m miqdorida qayd etildi [13]. Yuqoridagi keltirilgan rasmdagi raqamlar shuni isbotlaydiki, o‘zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan investor davlatlar orasida Rossiya 21 foiz bilan birinchi o‘rinda qayd etildi. Ushbu ko‘rsatkichni qolgan davlatlar kesimida ham ko‘rishimiz mumkin, jumladan, Xitoy 19,9 foiz, Turkiya 10,4 foiz, Germaniya 6,5 foiz, Saudiya Arabistoni 4,6 foiz, Italiya 3 foiz, Kipr 2,7 foiz, Shveytsariya 2,6 foiz, Buyuk Britaniya 2,1 foiz, AQSh (Amerika Qo‘shma Shtatlari) 1,8 foiz ulushlariga to‘g‘ri kelmoqda.

5. Xulosa va takliflar.

So‘nggi bir necha yil ichida O‘zbekiston jadal iqtisodiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda biznes va investitsiyalar uchun turli xil to‘siqlarini bartaraf etishda ochiqlik, yangilanish va qat’iyatlilik ramzlaridan biri sifatida tobora ko‘proq namoyon bo‘lmoqda. Investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhim jarayondir.

Yuqoridagi tahlil va muhokamalardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni shakllantirishga muvofaq bo‘ldik:

- O‘zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash bo‘yicha esa uning jahon arenasidagi imidjini mustahkamlash;
- investitsiyalarni jalb qilishda qulay ishbilarmonlik muhiti yaratish va axborotlar ochiqligini ta’milash;
- investorlar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, mahalliy kompaniyalar va xorijiy investorlar o‘rtasida ishlab chiqarish va sotish munosabatlarini rivojlantirishni hamda savdo logistikasini yaxshilash;
- ishbilarmonlik muhiti va qulay investitsion muhitni shakllantirishda davlat organlari rolini oshirish kabi ishlar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan kelib chiqqan holda, ularni chuqr

o‘rganib, tahlil qilish va asoslab amaliyotga tadbiq etish yaqin kelajakda o‘z natijasini beradi. Shiningdek, mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratish orqali davlatning investitsiya jozibadorligini yanada oshirishga va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR/ЛИТЕРАТУРА/REFERENCE:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi (2020 yil 29 dekabr)
2. Глаголев П., Белогур С. (1997) Инвестиционные просторы России // Российский инвестиционный вестник. № 3. с 15.
3. Yurii A.Rolik. A Complex Approach to Evaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine its Investment Attractiveness. // Procedia – Social and Behavioral Sciences, Volume 99, 6 November.
4. Volik Olga Andreevna, Solntseva Oksana Glebovna, Tsunaeva Yuliya Olegovna. “THE INCREASE IN INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF COMMERCIAL ENTERPRISES”.// Vestnik universiteti №6, 2018. – st.6; https://www.researchgate.net/publication/326715628_THE_INCREASE_IN_INVESTMENT_ATTRACTIVENESS_OF_COMMERCIAL_ENTERPRISES/link/5b606191a6fdccf0b2038113/download
5. Svitlana Gutkevych. Investment Attractiveness of Industries: Features and Trends.// Baltic Journal of Economic Studies, vol. 5, № 3, 2019. – P.9; https://www.researchgate.net/publication/334967088_INVESTMENT_ATTRACTIVENESS_OF_INDUSTRIES_FEATURES_AND_TRENDS/link/5d4822524585153e593d6592/download
6. Nodir Jumaev. “Ways to attract investment with assessment of investment potential of the regions” International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom Vol. VII, Issue 2, February 2019 Licensed under Creative Common Page 664, ISSN 2348 0386 <https://www.researchgate.net/publication/331231655>
7. Shomirov Aziz. “The role of ipo mechanisms in attracting investments to joint stock companies: necessity and prospects”, International Finance and Accounting: Vol. 2021: Iss. 1, Article 19.
8. Bobur Ochilov. “Mamlakat investitsiya jozibadorligini baholashda investitsion infratuzilma va xalqaro indekslarning ahamiyati” “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnal 3-son, 2021, 54-bet. http://economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_3_soni.pdf
9. Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish – T.: Iqtisod-Moliya, 2008. 37-b.
10. Nasirov E.I., Asamxodjayeva Sh.Sh. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2020. 80-81 betlarda aks etgan ma’lumotlar orqali muallif tomonidan erkin tayyorlandi.
11. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – www.stat.uz
12. O‘zbekiston Respublikasi Qimmatli qog‘ozlar Markaziy Depozitariysining rasmiy

veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – www.deponet.uz

13. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari – www.stat.uz